

**JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI PEDAGOG
XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**UMUMIY O`RTA TA'LIMNING
“MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA
MA'NAVIYAT ASOSLARI” FANI
BO`YICHA DAVLAT TA'LIM
STANDARTLARINING MOHIYATI VA
MAQSADI**

Jizzax-2005

Tuzuvchilar:
M.Irgasheva
Jizzax VXTPXQTMOI “Ijtimoiy fanlar va ma’naviyat asoslari”
kafedrasi mudiri

Sh.Abdurashidov
“Masofadan o’qitish bo’yicha muvofiqlashtirish bo’limi”
boshlig’i

Ushbu ma’ruza matnlarida “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” kursi tinglovchilarini UUTDTS bo’yicha qabul qilingan hujjatlar bilan tanishtirish ularga “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fanlari bo’yicha DTSning mazmun yo’nalishi, tuzilishi ,ta’lim mazmunining majburiy minimumlari haqida tushuncha berish, ularning DTS haqida bilim nazariy bilim va ko’nikmalarini takomillashtirish ko’zda tutilgan.

Mazkur ma’ruzalar matni “Ijtimoiy fanlar va ma’naviyat asoslari” kafedrasining 2005 yil 5 yanvardagi 1-sonli qaroriga asosan foydalanishga tavsiya etilgan.

Umumiy o`rta ta`limning “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fani bo`yicha davlat ta`lim standartining mohiyati va maqsadi.

Kutilayotgan natija

Tinglovchilarning UUTDTS bo`yicha qabul qilingan hujjatlar bilan tanishtirish, ularga “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari”fani bo`yicha DTSning mazmun yo`nalishi , tuzilishi, ta`lim mazmunining majburiy minimumlari haqida tushuncha berish, ularning DTS haqida nazariy bilim va ko`nikmalarini takomillashtirish.

Davlat talablari: “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” mutaxassisligi bo`yicha Umumiy o`rta ta`lim DTSlari mohiyati-mazmunini va ular asosida tuzilgan o`quv-dasturuini bilish.

Reja:

1. UUTDTS bo`yicha qabul qilingan hujjatlar tavsifi.
2. “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanining maqsadi.
3. Standartning tuzilishi.
4. Ta`lim mazmunini negizini belgilovchi ko`rsatkichlar

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvarda “Uzluksiz ta`lim tizimi uchun DTS ishlab chiqish va joriy etish to`g`risida” gi 5-sonli qarori qabul qilingan edi.

Qaror ta`lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga shuningdek ta`lim, fan texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg`or jahon darajasiga muvofiqligini ta`minlash maqsadida DTS to`g`risidagi Nizom tasdiqlanganligi hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bo`yicha Respublika komissiyasi huzurida ta`limning tegishli turlari bo`yicha DTS loyihalarining huquqiy va texnik ekspertizasi bo`yicha ekspert guruhi tashkil etilganligi belgilangan. 1-ildovada DTS to`g`risidagi nizom, 3- ildovada ta`lim muassasasi ustavini ishlab chiqish tartibi berilgan. Shuningdek, oliy va o`rta mahsus ta`lim vazirligi, XTV davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya markazi, ta`lim muassasalariga ega bo`lgan vazirliklar,

idoralar bilan birgalikda DTS to'g'risidagi nizomga muvofiq ta'limning tegishli turlari uchun DTS ishlab chiqishi hamda o'rta ta'limda 1999-200 yillarda o'rta mahsus, kasb hunar ta'limida 1999-2000 yillar, oliy ta'limda 1998-99 o'quv yilida tugallangan holda bosqichma-bosqich joriy etishligi belgilangan edi.

2004 yil 21 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat Umummilliy Dasturi to'g'risidagi" 3431-sonli farmoni qabul qilindi. Unda belgilab berilgan asosiy yo'nalishlardan biri yangi tahrirdagi DTS va o'quv dasturlarini takomillashtirish hisoblanadi.

Ta'limni standartlashtiriladigan turlari.

DTS ta'limning quyidagi turlari belgilanadi:

- umumiy o'rta ta'lim , shu jumladan boshlang'ich ta'lim
- o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi (akademik litsey, kasb hunar kollejlari)
- oliy ta'lim(bakalavriyat, magistratura)

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

Prezident I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIV sessiyasida "O'zbekiston XXI asr4ga intilmoqda mavzusidagi ma'ruzasida ta'limda davlat standartlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha mutassaddilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi".

"Yangi o'quv yili boshlangunga qadar mazkur tajriba qanday o'tayotganligini chuqur tahlil etib, ta'lim andozalari, o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya'i yosh avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritishi zarur".

Ma'ruzada ta'kidlangan g'oyalar asosida sinovdan o'tkazilgan DTS, tayanch o'quv rejasi va o'quv dasturlari mazmuniga Respublikada amalga oshirilayotgan ta'limdagi islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda zarur tuzatishlar kiritildi.

1999 yil 16 avgustda Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390

qarori bilan, o`quv dasturlari XTVning 1999 yil 26 avgustdagi hay`at majlisi Qarori bilan tasdiqlandi.

Qarorda 1998-99 o`quv yilida ta`lim muassasalarida tajriba-sinovdan o`tgan umumiy o`rta ta`limning o`quv dasturlari va rejalarini belgilangan tartibda tasdiqlanishi.1999-2000 o`quv yilidan boshlab umumiy o`rta ta`limning DTSni umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`quv dasturlari bilan birgalikda quyidagicha joriy etilishi:

1999-2000 o`quv yili 5-6 sinflar

2000-2001 o`quv yili 7-sinf

2001-2002 o`quv yili 8-sinf

2002-2003 o`quv yili 9 sinf belgilab berildi.

“DTS-umumiy o`rta, o`rta-maxsus, kasb hunar va oliy ta`lim mazmuniga hamda sifatiga qo`yiladigan talablarni belgilaydi,uni bajarish O`zbekiston Respublikasi barcha ta`lim muassasalari uchun majburiy” deb yozilgan O`zbekiston Respublikasi Ta`lim To`g`risidagi qonunning 7-moddasida.

Standart ta`limda yaratilgan me`yoriy reja,dastur, darsliklarni o`zlashtirish ekvivalenti ,ya`ni ta`lim mazmunini o`zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqish o`quvchini haddan ziyod zo`riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish ,ya`ni u o`quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo`lishi kerak deb yozadi J.G`.Yo`ldoshev.

“UUTDTS joriy etish zarurligi milliy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish,milliy umumiy o`rta ta`limni halqaro darajaga olib chiqish ,uning bundan buyon tubdan qayta qurish ishlarini hisobga olgan holda ,faoliyat ko`rsatishi ,ta`lim dasturlari va o`quv metodik faoliyatni majmualarni yangi mazmun bilan boyitish ,tashkiliy boshqaruv faoliyatini tub demokratik va gumanistik tamoyillar asosida o`zgartirish talablari bilan shartlanadi.”

UUTDTS quyidagilarni me`yorlaydi:

- a) Ta`lim dasturining majburiy minimal mazmun
- b) O`quvchilar o`quv yuklamasini maksimal hajmi
- c) Bitiruvchilarning umumiy ta`lim tayyorgarligi saviyasiga doir talablar .

UUTDS tuzilishi quyidagilardan iborat:

- 1) tayanch o`quv rejasi (UUTDS sining yuqori darajasi)
- 2) ta`lim sohalari (o`quv fanlari) o`zagining mazmuni
- 3) O`lchovlar tizimi,o`lchov ishlari

4) Bitiruvchilarning tayyorgarlik saviyasiga doir talablar

Umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartini joriy etish zarurligi milliy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, milliy umumiy o`rta ta`limni xalqaro darajaga olib chiqish, uning bundan buyon tubdan qayta qurish ishlarini hisobga olgan holda faoliyat ko`rsatishi, ta`lim dasturlari va o`quv-metodik majmualarni yangi mazmun bilan boyitish, tashkiliy-boshqaruv faoliyatini tub demokratik va gumanistik tamoyillar asosida o`zgartirish talablari bilan shartlanadi.

Davlat ta`lim standarti umumiy o`rta ta`lim maqsad va vazifalarini hisobga olgan o`quvchining shaxsiyati tomon yuz tutgan, o`quv-tarbiya jarayonini demokratlashtirgan va insonparvarlashtirgan, ijtimoiy institutsifatida maktabning huquqlarini kengaytirgan, unga milliy qiyofa baxsh etgan holda ishlab chiqildi.

Maktabning milliy asosi umumiy o`rta ta`limning umuminsoniydan 5 tashqari salmoqli ravishda milliy komponent taqdim etilgan mazmuni kabi muhim ko`rsatkichi bilan qanoatlantirilgan. Umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartida har bir ta`lim sohasining (o`quv fanining) yangi mazmunini belgilashga boy milliy-ibtidoiy, madaniy-tarixiy an`analar va jahon yutuqlari, shuningdek, taraqqiyparvar pedagogik va axborot texnologiyasi hisobga olingan.

Umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartida ta`lim tarbiya tuzilishi, o`quvchilarni rivojlantirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarida o`z aksini topgan tub o`zgarish maqsadlari nazarda tutilgan.

Umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartini joriy etish quyidagilarga yordam beradi:

- 1) Ta`lim muassasalarining turlari, umumiy o`rta ta`lim olish shakllari xilma-xil bo`lgan sharoitda O`zbekiston Respublikasida ta`limiy makon borligi;
- 2) Muhim rag`batlantiruvchi omillar asosida o`quvchilarda o`qishga bo`lgan quyidagi kabi ijobiy motivlar shakllantirish;
 - a) o`quv materiallarining tushunarligini oshirish;
 - b) o`quv yuklamasini me`yorlashtirish;
 - c) o`quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablarni va uni baholash mezonlarini anglab yetishlari.
- 3) Bir xillashtirilgan o`lchovlar va o`lchov tartiblari asosida o`quvchilarning tayyorgarlik sifatiga obyektiv baho berish.

- 4) Pedagog mehnati natijalarini o'quvchilar erishgan o'quv yutuqlarining davlat ta'lim standartlariga mosligini hisobga olgan holda baholashga o'tish. Bu narsa ta'limning pedagogik texnologiyasini tanlashda erkinlik beradi.
- 5) Asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.
- 6) O'quv rejasida o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklariga ko'ra tanlab shug'ullanishlari uchun kafolatlangan vaqt ajratish.

Umumiy o'rta ta'lim davlat standarti deganda umumiy o'rta ta'limning istiqboldagi ijtimoiy maqsadlarini aks ettiradigan hamda o'quvchilarning jamiyat va davlat tomonidan ilgari surilayotgan ta'lim maqsadlariga erishish barasidagi imkoniyatlarini hisobga oladigan bilim olganlik, davlat meyorlari sifatida qabul qilinayotgan asosiy parametrlar tizimi tushuniladi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti asosan o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga doir pedagogik nazariya, ilg'or pedagogik tajribaning organik birligi va o'zaro bog'lanishi asosida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi me'yorlar, parametrlar, qoidalar o'qitish saviyasi va sifati ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'limi standarti deganda umumiy o'rta ta'limning istiqboldagi ijtimoiy maqsadlarini aks ettiradigan hamda o'quvchilarning jamiyat va davlat tomonidan ilgari surilayotgan ta'lim maqsadlariga erishish borasidagi imkoniyatlarini hisobga oladigan bilim olganlik, davlat me'yorlari sifatida qabul qilinayotgan asosiy parametrlar tizimi tushuniladi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti asosan o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga doir pedagogik nazariya, ilg'or pedagogik tajribaning organik birligi va o'zaro bog'lanishi asosida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi me'yorlar, parametrlar, qoidalar, o'qitish saviyasi past va sifat ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarining mazmuni o'zida ta'limning majburiy va ixtiyoriy komponentlarini mujassamlashtiradi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining qo'shimcha (maktab) komponenti o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlaridan, maktabning moddiy-texnik va kadrlar bilan ta'minlanganidan, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy regionlari talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Qo'shimcha komponentning hajmi va mazmunini

joylarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq ta'lim boshqarmalari bo'yicha vakil qilingan organlar belgilab beradi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti strukturani, mazmuni va uni taqdim etish darajasini aniqlab beradi, ta'lim, tarbiya natijalarini va o'quvchilarning rivojlanishini o'lchash va tahlil qilish metod va shakllarini belgilaydi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti vositasida umumiy o'rta ta'lim talab etilayotgan darajasi stabilligi, unga doimiy ravishda qayta erishuv va jamiyat hamda davlatning rivojlanishi, fan, madaniyat va texnika taraqqiyotning jahon darajasi istiqbollariga javob beradigan takomillashtirish ishi ta'minlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti mohiyatan umumiy o'rta ta'limning quyidagi asosiy ko'rsatkichlariga-tarkibiy qismlariga doir minimal majburiy talablar bayonini ifoda etadi: tayanch o'quv rejasi (Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining yuqori darajasi sifatida), ta'lim sohalari (O'quv fanlari) mazmuni, shaxsning akademik litsey va kasb-hunar kollejarida o'qishni davom ettirish uchun umumiy ta'lim tayyorgarligi.

Maktabning o'quv-tarbiya ishlari umumiy o'rta ta'lim tayanch o'quv rejasi va majburiy dasturlari asosida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti o'quv fanlari ro'yhatini, umumiy ta'lim dasturlarini, tayanch o'quv rejasi vositasida o'qish davri davomiyligini belgilab boradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-9 sinflari uchun mo'ljallangan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fani o'quvchilarning bilim saviyalari, yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ikki yo'nalishga bo'lib o'rganiladi.

1. Milliy istiqlol g'oyasi.

2. Ma'naviyat asoslari.

O'quvchilar mazkur yo'nalishlar bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

Milliy istiqlol g`oyasi bo`limi

- milliy g`oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini sharhlash va anglash;
- milliy istiqlol mafkurasining milliy va umuminsoniy tamoyillari va vazifalarini bilish;
- g`oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko`rinishlari , g`oyaning xususiyatlari va turlarini bilish, ular haqidagi fikrini erkin bayon etsih;
- g`oyaviy bo`shliq va uning oqibatlarini anglash;
- vayronkor g`oyalar va ularning zararli oqibatlarini bilish;
- diniy ekstremizm,terrorizmning yoshlar ma`naviyatiga t`asirini anglash;
- jaholatga qarshi kurash tamoyllarini bilish;
- tarixiy tarqqiyot va mafkuraning nisbatan talil qilish,ko`nima va malakalrini shakllantirish;
- jamiyat rivoji va bunyodkor g`oyalarini sharxlay olish;
- bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini anglash;
- milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g`oyalari mazmunini singdirish;
- o`zbekistondagi demokratik o`zgarishlar va mafkuraviy singdirish;
- O`zbekistondagi demokratik o`zgarishlar va mafkuraviy jarayonlarni qiyoslash;
- Mamlakatni tarqqiy ettirishning o`zbek modeli va ustuvor yo`nalishlarini bilish, ularni sharxlash va hayotiy misolar bilan isbotlash ko`nikma,malakalarini shakllantirish;
- Hulq-odob,ma`naviyat,huquqiy bilim siyosiy ong negizi ekanligini anglash;
- Mahalla-demokratiya darsxonasi ekanligini anglash.

Ma`naviyat asoslari bo`limi

- mustaqillik mohiyati va ma`naviy qadriyatlarni bilish,sharxlash;
- miliy va umuinsoniy qadriyatlarni ajrata bilish,ularning mohiyatini anglash;
- sharq va g`arb mutafakkirlarining ma`naviy qarashlarini tahlil eta olish;
- ma`naviy ahloqiy fazilatlarni qadrlash;

- madaniyatning ahamiyatini anglash va o`quvchilarning ekologik ongini yuksaltirish;
- bilimdonlik va vatanparvarlik –ma`naviy barkamollik mezoni ekanligini anglash;
- oila,oilaviy qadriyatlarni anglash;
- milliy bayramlar,urf-odat va an`analar mazmunini tushunish.

“Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanining asosiy maqsadlaridan biri Prezident I.Karimov tomonidan belgilab berilgan g`oya yurtimizda ozod va obod Vatan,erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta`limotli yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Mazkur fan miliy istiqlol g`oyasining asosiy tushincha va tamoyillari,uning tarixiy negizlari,ilmiy,falsafiy,dunyoviy ildizlari,o`ziga xos namoyon bo`lish qonuniyatlari va xususiyatlari to`g`risida bilim beradi.

“Miliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanining o`qitilishini to`g`ri tashkil qilish va bu borada ta`lim-tarbiyaning an`anaviy hamdazamonaviy usullaridan to`g`ri foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shunigdek, o`quvchilarning bilim samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy talablarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

**Kompyuterda sahifalovchi:
Sh.Abdurashidov**

**Jizzax viloyat Xalq ta'limi pedagog xodimlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti nashri.
700800, Jizzax shahri, Sh.Rashidov-1,
Tel: (37222) 60823 Faks: (37222) 61015**

**Jizzax malaka oshirish instituti Compyuter markazida chop
etildi. Tel/faks: 2261015, e-mail: jizzax_moi@xalq.mno**